

Toponimlarning grammatic xususiyatlari**(Muhammad Yusuf she'riyati misolida)**

Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a pedagogika fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'naliishi

3-bosqich talabasi **Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimlar va joy ta'rifi, Muhammad Yusuf she'riyatidagi joy nomlari tasnifi, grammatic xususiyatlari va ularning o'zgarish bosqichi, sodda va qo'shma toponimlar haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf, toponom, sodda toponom, qo'shma toponom, Buxoro, Samarqand, Hirot, Qumqo'rg'on, Bog'ishamol, Buramatol.

Til ham boshqa ijtimoiy hodisalar kabi, jamiyat bilan bog'liqlikda o'zgarib, taraqqiy etib boradi. Ammo tildagi o'zgarishlar o'ziga xos farq va jihatlarga ega. Tildagi o'zgarish jarayonida birini yo'qotish evaziga, ikkinchisini yuzaga keltirish yo'li bilan emas, balki avvaldan mavjud bo'lган qoida-qonunlarni takomilllashtirish va shakllantirish yo'li bilan yuz beradi. Tildagi o'zgarish va rivojlanish jarayoni tilning ichki taraqqiyot qonunlari asosida to'xtovsiz ravishda o'zgarib, tilning lug'at tizimi boyib borishi bilan xarakterlanadi.

Toponimlar til lug'at manbasining bir bo'lagidir. Shu bilan bir qatorda joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina miqdorda farq qiladi. Bu farq toponimlaming uzoq davr yashashida, ularning polikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan — tarkibiy qismlardan tashkil topishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtiroy etishi ya'ni qo'llanilishida o'z aksini topadi. Toponimlarni yasashda shu tilga uyg'un bo'lган lingvistik vositalar (modellardan) qo'llaniladi. Lekin shu bilan bir qatorda barcha tillarda toponom yasovchi o'ziga xos vositalar paydo bo'ladi, ya'ni muayyan suffikslar (affikslar) va so'zlar faqat yoki aksari toponimlar yaratishga uyg'unlashib qoladi.¹

Toponimlarning qanday gap bo'laklaridan iborat ekanligi, shakl shamoyili tuzilishi modelliar deyiladi. O'zbekiston geografik nomlari ya'ni joy nomlarini grammatic tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma toponimlarga ajratamiz. Sodda va qo'shma toponimlardan namunalarni o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lган Muhammad Yusufning uchratamiz. Shoiring "Bosmachilar"² she'rida:

¹ Qorayev S. "Toponomika" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2006

² Muhammad Yusuf "Saylanma" Sharq nashriyoti. Toshkent-2007. 74-bet

Siz yo‘q, bunda ko‘tarildi darpardalar:
 Otdan tushdi sariq mo‘ylov sarkardalar,
Buxoroni to‘pga tutgan sharmandalar...
 Afsus, afsus, ko‘rmadingiz, “bosmachilar”.

Buxoro- O‘zbekiston Respublikasining qadimiy, uzoq tarixga ega bo‘lgan shaharlaridan biri, Buxoro viloyatining ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazi sanaladi. O‘zbekiston hududining janubiy-g‘arbida, Zarafshon daryosi quyi oqimida joylashgan shahar. **Buxoro-** toponim (oykonimlar guruhiga kiradi), sodda, qo‘srimchasi topomin. Shu o‘rinda sodda topominlar o‘z navbatida, qo‘srimchasi topominlarga va qo‘srimchali topominlarga ajratiladi. Qo‘srimchasi, affikssiz topominlar deganda faqat birligina otdan iborat bo‘lgan, boshqa biron ta ham unsur qo‘srimmagan geografik nomlar tushuniladi. Shoир she’riyatida **Turon, Asaka, Mag‘rib, Kogon, Balx, Qobul, London, Shosh, O’sh Urgut** singari sodda qo‘srimchasi sinonimlarni uchratish mumkin.

Poyezd tunda keldi **Kogonga**,
 Tillolarni ortdik vagonga.

* **

Yuzlaring yoritar tunda oy balqib,
 Mashrab **Balx** dorida turibdi qalqib.
 (Muhammad Yusuf “Ko‘hna quduq” she’ri)

Dilda bayram, oldindadir kunlar gavhari,
 O‘zbek yurtda tug‘ilajak bir so‘z sarvari.

Toshkentdan to **Londongacha, Londondan** nari,
 Shu choqdagi yuragimni tinglangiz, hoy hu.
 (Muhammad Yusuf “Nido” she’ri)

Qo‘srimchali topominlar deganda, otga qandaydir qo‘srimcha —affiks qo‘sib hosil qilingan ya’ni yasalgan geografik nomlar tushuniladi. Davr o‘tishi, ijtimoiy hayot shakllanishi bilan bu so‘zlarning ko‘pchiligi mustaqil holda qo‘llaniluvchi so‘zlik maqomini yo‘qotgan, topominlarning ajralmas bir bo‘lagiga aylanib qolgan. Ular lug‘aviy ma’no anglatmaydi, yangi nom yasamaydi, qadimgi nomlar tarkibida qotib qolgan holdadir. O‘z davrida ular yordamida shahar, qishloq, qo‘rg‘on nomlari yasalgan. Shoirning “**Men dardimni kimga aytaman**”³she’rida keltirilgan:

Samarqandga borsam men agar,
 Ulug‘bekni ko‘rib qaytaman.

³ Muhammad Yusuf “Xalq bo‘l elim” Toshkent-2005

Samarqand so‘zi ushbu davrgacha Samar+qand shaklida yasama so‘z deb qaralgan. Ammo hozirgi kunga kelib bu so‘z tub so‘z sifatida tahlil qilinadi. Ushbu qo‘sishimcha davr o‘tishi bilan toponim tarkibiga singib krtgan. Shuningdek, shoirning mashhur she’rlaridan biri “Ajab dunyo” she’rida keltirilgan toponimlar:

Minoradek marmar haykali
Ko‘rinsa ham hatto **Hirotgā**.

Hirotgā shaharining nomi dastlab Hiri shaklida bo‘lgan. Hiri poytaxtlik davrida geografik maydoni tobora kengaya borgan va Navoiy zamonida daryo bo‘ylab 15-16 km ga cho‘zilgan. Hiri shahri davr o‘tishi bilan tevarak-atrofidagi xalqlar bilan birgalikda Hirotgā (Hiri Hot) deb atala boshlagan va bora-bora shu nom qonunlashib qolgan, deb hisoblaymiz. Lekin -t qadimgi turkiy tilda va mo‘g‘ul tilida ham ko‘plik o‘rnida keladi. Bugungi kunga kelib ko‘plab qo‘sishimchalar so‘z tarkibiga singib ketgan. Shu qatorda -t qo‘sishimchasi ham Hirotgā so‘zi tarkibiga singan. So‘z tarkibiga qo‘silib singib ketgan qo‘sishimchalarga quyidagilarni kiritish mumkin: -kat// -kad// -qat, -kent// -qand// -kand, -diz// -diza// -di// -jiz// -jiza, -man// -mon// -min, -metan// -mitan// -maton, fag‘n// bag‘n// vag‘n// bog// -boq// -voq, -duvon// -tuvon, -var// vor// -vara// -bar// -par, -deh// de// -di, -zay// -zoy// -za// -zi, -kan// -kana va boshqalar.

Qo‘shma toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi. Bunday geografik nomlar ham grammatik jihatdan bir necha turga bo‘linadi:

a) ot + ot tipidagi toponimlar:

Muhammad Yusuf she’rlarida ot+ot tipidagi **Bog‘ishamol, Shohimardon, Tojmahal, Askartog‘, Qumqo‘rg‘on** kabi toponimlarni uchratish mumkin.

Qani **Bog‘ishamol** kezgan yellaring,
Qirlarda kekkaygan qirg‘ovullaring.
Sen sig‘ingan — o‘sha jondin ortiq senga
Tojmahal ham bir bobomdan tortiq senga.
(Muhammad Yusuf “Dunyo” she’ri)
Siqilib ketadi har yil bahorda,
Sayrga boradi **Shohimardonga**.
 (“Uni taniysiz” she’ri)

Ikki otning o‘zaro birikib, qo‘shma taponimlar hosil qilishi o‘zbek tilida juda keng tarqalgan lisoniy hodisalardan biri sanaladi.

b) fe'l + ot tipidagi toponimlar:

Burgut edim bir kechada tushdim osmondan,
Buramatol bog‘da sizni ko‘rdim qaydanam

Toponimlar ham, til leksikasining tarkibiy qismi sifatida boshqa hamma so‘zlar kabi til qonuniyatlariga bo‘ysunadi, lekin o‘zining paydo bo‘lishi, yuzaga

kelishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, yashash tarzi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum bir darajada boshqa guruh so'zlaridan farq qiladi. Shu bilan bir qatorda, toponimlarda milliy tilimizga xos va uyg'un bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar anchagini ko'proq saqlangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, iyitmoiy tarzi, insonlarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixda yetishib chiqqan mashhur va tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar yuzaga kelishining asosiy manbalari sanaladi.

She'riy nutqda qo'llangan har qanday til birligi muayyan bir lisoniy, badiiy-estetik vazifani bajaradi. She'riyatda qo'llaniladigan toponimlar ham she'riy san'at va uslubiy vositalar sifatida qo'llanib, o'ziga xos ekspressiv-emotsional, lingvopoetik vazifalarni bajaradi. Muhammad Yusuf she'riyatida qo'llanilgan toponimlar poetik fikrni lo'nda, obrazli, badiiy, ta'sirchan, ifodalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Yusuf "Saylanma" Sharq nashriyoti. Toshkent-2007. 74-bet
2. Muhammad Yusuf "Xalq bo'l elim" Toshkent-2005
3. Qorayev S. "Toponomika" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2006
4. To'ra Nafasov va Vazira Nafasova "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati" Toshkent "Yangi nashr avlod" 2007.
5. Qorayev S. O'zbek toponimlari, 1970
6. Sh.Rahmatullayeva."Toponimlar lug'ati"1978.